

# “YASHIL IQTISODIYOT” TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH ORQALI ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11398402>

*Sobirov Shohruhbek*

*TDIU MMT 75/22-guruh talabasi*

*[sobirovshohruhbek69@gmail.com](mailto:sobirovshohruhbek69@gmail.com)*

*Rahimova Nozimaxon*

*TDIU “Moliya” kafedrasida o‘qituvchisi*

*[rahimovanozimaxon83@gmail.com](mailto:rahimovanozimaxon83@gmail.com)*


**Kalit so‘zlar:** Energiya samaradorligi, “yashil iqtisodiyot” texnologiyalari yashil transformatsiya, “yashil iqtisod”, quyosh paneli, bioxilma-xillik, ekologiya.

**Kirish.** Bugungi kunda iqtisodiyot shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda ishlab chiqarish hajmi ham, kapitalga bo‘lgan talabning hajmi ham oshib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida mamlakatlarda korxonalar va firmalar soni va ularning tashqi muhitga salbiy ta‘siri ham ortmoqda. Bu esa oxir-oqibat kelajakda kapitalning kamayishiga olib keladi. Bugungi kunda mamlakatlar muqobil energiyaga muhtoj va buning ustida butun jahon iqtisodchi olimlari ish olib borishmoqda [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev davlatning yashil iqtisodga o‘tish g‘oyasini ilgari surmoqda. Shuning uchun barcha sohalarda yashil iqtisodiyot texnologiyalarini qo‘llashni joriy etmoqda. Bu esa O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida maqsad qilib olingan. Ko‘zlangan maqsadga erishish uchun mamlakat aholisini uzluksiz elektr energiyasi bilan taminlash va iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20% ga oshirish vazifasi qo‘yilgan.

“Yashil iqtisodiyot” texnologiyalari deyilganda bioxilma-xillikka salbiy ta‘sir ko‘rsatmasdan turib, iqtisodiy jarayonda xizmat ko‘rsatadigan texnologiyalar tushuniladi. Bunga misol qilib quyoshdan va shamoldan energiya oladigan texnologiyalarni aytishimiz mumkin [2].

Bugungi kunda butun jahonda ko‘plab davlatlar atmosferaga zaharli gazlar chiqarishmoqda va buning oqibatida atmosfera yemiriloqda. Bunga sabab “yashil iqtisodiyot” texnologiyalaridan foydalanish ko‘rsatkichi kamligidir. Shuningdek O‘zbekistondagi korxonalar ham ko‘plab zaharli gazlar chiqarishmoqda. Bu o‘z navbatida ko‘plab salbiy oqibatlarga olib keladi.



**1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi viloyatlari kesimi bo‘yicha atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar hajmi(ming tonna)[3]**

1-rasmdan ko‘rinib turibdiki mamlakatimizda atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlar miqdori anchagina katta. Bunda mamlakatimizda yetakchi o‘rinlarda Toshkent viloyati va Farg‘ona viloyati turibdi. Chunki bu viloyatlarda ishlab chiqarish yaxshi rivojlangan. Buning natijasida bu viloyatlarda atmosferaga zararli tasir etuvchi korxonalar ko‘pdir.

O‘zbekiston Respublikasi qayta tiklanuvchi manbalardan energiya ishlab chiqarish bo‘yicha yuqori texnik salohiyatga ega bo‘lib, uning 97 foizi quyosh energiyasining ulushiga to‘g‘ri keladi. Jumladan, Respublikadagi quyosh nuridan energiya ishlab chiqarish salohiyati yiliga 525-760 mlrd. kVt.s.ni tashkil etadi. Buning sababi, mamlakatimizda quyoshli kunlar yiliga o‘rtacha 320 kunni va faol quyosh nurlari 3000 soatni tashkil etadi[7].

Mamlakatimiz iqlim jihatidan yaxshi joylashganini hisobga olgan holda mamlakatimizda quyosh elektr stansiyalarini va quyosh panellarini ko'paytirishimiz kerak. Ekologik toza, xavfsiz va tejamkordir. Davlat dasturiga kiritilgan aynan shu soha bo'yicha ko'plab rejalar bor. Misol uchun 2030-yilga borib mamlakatimizda elektr energiyasini ishlab chiqarish 120 mlrd kVt/soat ko'rsatkichga erishish kutilmoqda[5]. Aynan shu yilga borib mamlakatimiz umumiy energetika balansida quyosh energiyasining ulushi 6% ga yetkazish kutilmoqda. 2025-yilga borib qayta tiklanadigan energiya hajmi umumiy energiya iste'moli majmuasida 19,7 % gacha oshirish rejalashtirilgan.

Nafaqat quyosh energiyasi qayta tiklanadigan energiyalar orasida ekologik xavfsiz va tejamkordir, shamol energiyasi ham shu qatorda jahonda keng miqyosda qo'llaniladi. Bu qayta tiklanadigan va ifloslanmaydigan tarzda elektr energiyasini olish yo'li hisoblanadi.

Shamol energiyasi bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda AQSh, ikkinchi o'rinda Germaniya, Xitoy, Hindiston va Ispaniya turadi. Lotin Amerikasida eng yirik ishlab chiqaruvchi Braziliya hisoblanadi. Ispaniyada, shamol energiyasi 12 million uy ekvivalentini ta'minlaydi va mamlakat talabining 18 foizini tashkil qiladi. Demak, mamlakat energetika kompaniyalari tomonidan taqdim etiladigan yashil energiyaning katta qismi shamol stansiyalaridan olinadi va qayta tiklanadigan energiya hisoblanadi[6].

**Xulosa:** Mamlakatimizda ko'p qavatli inshootlar ko'p bormoqda, shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, mamlakatimizdagi inshootlarning tomlariga quyosh panellarini o'rnatish va buning natijasida har bir bino o'z o'zini elektr energiyasi bilan taminlashi zarur. Mamlakatimizning "yashil iqtisodiyot"ga jalb etuvchi iqtisodiy siyosatni keng ko'lamda amalga oshirish talab etiladi. Nafaqat quyosh panellarini davlat binolariga qolaversa, fuqarolarning yashash joyiga ham o'rnatishni amaliyotini tadbiq etish kerak. Bu esa o'z navbatida fuqarolar uchun ko'plab foyda keldiradi. Misol uchun elektr energiyasiga kam soliq to'lashadi, elektr energiyasi olishyatgani uchun daromad solig'i to'lashmaydi va eng asosiysi bu xavfsiz. Quyosh panellarini faqatgina bino va inshootlarga o'rnatmasdan

mamlakatimiz hududidagi lalmi va hosil olib bo‘lmaydigan yerlarga ham o‘rnatish va ushbu yo‘l orqali mamlakatimizning elektr energiyasiga bo‘lgan talabini to‘liq qoplash hamda ortganini eksportga yo‘naltirish kerak.

Bugungi kunda energiya olishning ko‘plab usullari ekologiyaga salbiy ta‘sir o‘tkazadi. Gaz, neft va ko‘mir ifloslantiruvchi manbalar bo‘lib, atrof muhitga zarar yetkazmoqda. Quyosh va shamol stansiyalari bundan mustasno. Mamlakatimizda tog‘li va tog‘oldi hududlar ko‘p bo‘lganligi uchun ushbu hududlarda shamol elektr stansiyalarni qurish va bunda keng ko‘lamda foydalanishni jahon amaliyoti talab qilmoqda. Bu yuqorida aytib o‘tilganidek, ham ekologik toza ham hamyonbobdir. Ushbu yo‘llardan foydalanishni jahon tajribasiga asoslangan holda amalga oshirish zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Xolov A. (2013) “O‘zbekiston yoshlarida tadbirkorlik ijtimoiy ma‘suliyatini oshirish” ilmiy asari.
2. Jo‘rayev T.T. – “Iqtisodiyot nazariyasi” (O‘quv qo‘llanma). Toshkent -2017
3. Jo‘rayev T.T. – “Iqtisodiyot nazariyasi”. Toshkent – “Fan va texnologiya” nashriyoti -2018.
4. Jumaniyazov Inomjon To‘raevich, Abdullaev Aybek Nazarbaevich, Sabirov Mirza Qilichbayevich, & Shavkat Bayramovich Babaev. (2024). Importance of social principles of sovereign wealth funds. *Global Scientific Review*, 26, 46–54. Retrieved from <https://scienticreview.com/index.php/gsr/article/view/412>
5. Mohira Shavkat Qizi Davlatboyeva, Inomjon Turayevich Jumaniyazov Yashil byudjetlashtirish va uni O‘zbekistonda joriy etish istiqbollari // *Science and Education*. 2023. №2.
6. Kobulov K. WAYS AND METHODS FOR FORMING INCOME POTENTIAL OF THE REGION //EPRA International Journal of Economics, Business and Management Studies (EBMS). – 2023. – T. 10. – №. 5. – C. 66-68.
7. <https://stat.uz/uz>

8. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunining yangi tahriri. 2014. 29-oktabr.

9. <https://cityeconomy.uz/>

10. <https://www.renovablesverdes.com/u>

